

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 233 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Iloxmonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyrovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срождидинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta'minlash mexanizmlari	166
Sattorova Nasiba G'anjion qizi	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'anjion qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормаматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'gurta qilish xarajatlarini hisobi	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	



O'ZBEKISTONDA BANK OPERATION XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBİ



Qurbonova Sitara Vahobjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya va Buxgalteriya fakulteti talabasi
sitoraQurbonova982@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida operatsion xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari tahlil qilinadi. Operatsion xarajatlar bank faoliyatining ajralmas qismi hisoblanib, ularni to'g'ri hisobga olish bankning foydaliligi va moliyaviy samaradorligini baholashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada banklarda buxgalteriya hisobi yuritilishi, buxgalterlarning vazifalari va mas'uliyatlari, hisobvaraqlar rejasi tuzilmasi, buxgalteriya operatsiyalarini aks ettirish tamoyillari hamda bank balansining tuzilishi yoritib beriladi. Bundan tashqari, O'zbekiston tijorat banklari amaliyoti asosida operatsion xarajatlar tarkibi tahlil qilinib, ularni hisobga olish tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, operatsion xarajatlar, tijorat banklari, hisobvaraqlar rejasi, bank balansi, moliyaviy samaradorlik

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы отражения операционных расходов в бухгалтерском учете коммерческих банков. Операционные расходы являются неотъемлемой частью банковской деятельности, и их правильный учет играет важную роль в оценке прибыльности и финансовой эффективности банка. В статье раскрываются организация бухгалтерского учета в банках, функции и ответственность бухгалтеров, структура плана счетов, принципы отражения бухгалтерских операций, а также структура банковского баланса. Кроме того, на основе практического опыта коммерческих банков Узбекистана проводится анализ структуры операционных расходов и предлагаются практические рекомендации по совершенствованию системы учета.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, операционные расходы, коммерческие банки, план счетов, банковский баланс, финансовая эффективность

Abstract: This article analyzes the accounting of operating expenses in commercial banks. Operating expenses are an integral part of banking activities, and their accurate accounting is essential for assessing profitability and financial efficiency. The article explores the accounting system in banks, the roles and responsibilities of accountants, the structure of the chart of accounts, the principles of recording accounting transactions, and the composition of the bank balance sheet. Additionally, based on the practical experience of commercial banks in Uzbekistan, the structure of operational expenses is analyzed, and practical recommendations are proposed to improve the accounting system of operational costs.

Key words: accounting, operating expenses, commercial banks, chart of accounts, bank balance, financial efficiency

KIRISH

Tijorat banklarida hisob siyosatini to'g'ri yuritish – moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish hamda risklarni minimallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Hisob siyosati – bu bank faoliyati davomida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va tartibga solish uchun qo'llaniladigan qoidalar va usullar to'plamidir [1]. Ushbu siyosatni takomillashtirish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va moliyaviy ishonchni oshirishda



katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hisob siyosatida risklarni boshqarish tizimi ham muhim o'rin egallaydi. Bank o'zining aktivlari va majburiyatlarini, jumladan, kreditlar va depozitlar bo'yicha risklarni aniq baholab, ular uchun zaxira ajratish tartiblarini belgilashi zarur. Bu esa kutilmagan moliyaviy yo'qotishlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda hozirgi kunda Markaziy bank va tijorat banklaridan tashkil topgan bank tizimi faoliyat yuritmoqda. Respublika bank tizimini izchil isloh qilish orqali uning barqarorligi va mustahkamligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada bank tizimi tomonidan yuqori ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidlagan edilar:

"So'nggi ikki yilda tijorat banklarining umumiy kapitali 2 baravarga ko'paydi. Birgina 2009-yilning o'zida yetakchi banklarning nizom jamg'armalarini oshirish uchun qo'shimcha ravishda 500 milliard so'mdan ortiq davlat mablag'lari ajratildi. Umumiy aktivlari mamlakatimiz bank tizimining 90 foizdan ortig'ini tashkil etadigan 14 ta tijorat banki 'Fitch Ratings', 'Moody's' va 'Standard & Poor's' kabi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining 'barqaror' degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo'ldi" [2].

Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sir doirasi keng. Bank operatsion buxgalteriya hisobi esa ushbu jarayonda banklar barqarorligini oshirish hamda qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlarning maqbulligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada bank operatsion buxgalteriya hisobi tizimining O'zbekistondagi hozirgi holati tahlil qilinadi va bank tizimida moliyaviy shaffoflik va xarajatlarni nazorat qilish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maqola yozish jarayonida mavzuga aloqador bir qator ilmiy maqolalar va darsliklar tahlil qilindi. O'zbekiston sharoitida bank operatsion xarajatlari hisobining holati o'rganilgani sababli, "Banklar va bank faoliyati" bo'yicha qonuniy me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosiy manba sifatida tanlab olindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Banklar buxgalteriya hisobi bo'yicha yo'riqnomasi" (2022-yil) tijorat banklarida buxgalteriya yozuvlarini yuritish, hisobvaraqlar rejasi va xarajatlarni tasniflash mezonlarini belgilab beradi.

Abdullayeva M. (2021-yil) tomonidan yozilgan "Tijorat banklarida xarajatlar buxgalteriya hisobi" nomli maqolada operatsion xarajatlarning guruhlanishi va ularning tahliliga oid amaliy yondashuvlar ilgari surilgan. Muallif xarajatlarning samaradorligini oshirishda ularni avtomatlashtirilgan tizim asosida yuritish muhimligini ta'kidlaydi.

Karimov Sh. (2020-yil) "Bank faoliyatining moliyaviy tahlili" nomli monografiyasida bank moliyasida xarajatlarning o'рни va ular asosida foyda darajasini aniqlash masalalarini yoritgan. Ushbu asarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda xarajatlar ustidan nazoratning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

International Financial Reporting Standards (IFRS, 2023-yil) xalqaro standartlar asosida banklarda moliyaviy hisobotlarni yuritish tartibini tavsiya etadi. Mazkur manbaga ko'ra, operatsion xarajatlar aniq va o'z vaqtida aks ettirilishi lozim.

Shuningdek, Hasanov A. (2022-yil) "Banklar buxgalteriya hisobining axborot texnologiyalar asosida yuritilishi" nomli tadqiqotida bank tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilishi haqidagi amaliy misollarni keltiradi.

Nazarov B. (2019-yil) tomonidan yozilgan "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darsligida xarajatlar buxgalteriyasining nazariy asoslari, jumladan, buxgalteriya fanining metodologik jihatlarini tahlil etilgan bo'lib, bu ilmiy izlanishlarning nazariy poydevorini mustahkamlaydi.

"Accounting for Banks" (2020-yil), Cambridge Business School Press tomonidan chop etilgan nufuzli qo'llanmada xalqaro tajriba asosida bank xarajatlarni tasniflash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tamoyillari bayon etilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan adabiyotlar asosida operatsion xarajatlarning buxgalteriyada to'g'ri aks ettirilishi bank faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutishi aniqlanadi. Shu sababli, ushbu maqolada mazkur manbalar tahlil qilinib, O'zbekiston tijorat banklari amaliyoti bilan solishtirildi va ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga oid qonunchilik hujjatlari, Markaziy bank yo'riqnomalari, amaliy tajribalar va statistik byulletenlar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, tahliliy sharhlash va mantiqiy tahlil usullari orqali chuqur o'rganilib, operatsion xarajatlar hisobining samaradorligi baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining rivojlanishida banklar alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni asosan, bank – bu tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda ushbu mablag'lardan tavakkal asosida kreditlar berish yoki ularni investitsiyalash;

to'lovlarni amalga oshirish [3].

Banklar o'z faoliyatida quyidagi asosiy operatsiyalarni bajaradi: yuridik va jismoniy shaxslarning hamda boshqa banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, omonatlarni jalb etish, kreditlar ajratish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish, sotib olish va sotish, moliyaviy lizing xizmatlarini ko'rsatish, kassa operatsiyalarini bajarish, xorijiy valyutani sotish va xarid qilish, pul mablag'lari hamda hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish va boshqa shu kabi bank xizmatlari.

Shunday qilib, bank – bu to'lovlar va hisob-kitoblarni tashkil qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlarini yuritish, ularning mablag'larini saqlash va kreditlash bilan shug'ullanadigan tijorat muassasasidir.

Bank tizimida amalga oshiriladigan barcha moliyaviy operatsiyalar, ayniqsa pul mablag'larining harakati va ularning kelib chiqish manbalarini tahlil qilishda buxgalteriya hisobi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan buxgalteriya hisobi orqali bank faoliyatiga oid aniq va tizimli ma'lumotlar shakllantiriladi, bu esa bankning aktiv va passiv operatsiyalarini samarali rejalashtirish imkonini yaratadi. Moliyaviy hisobotlar asosida bankning umumiy moliyaviy holati tahlil qilinadi hamda rahbariyat tomonidan strategik qarorlar qabul qilinadi.

Hisobotlardan olingan ma'lumotlar bank faoliyatini takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu siyosatga tayangan holda amaliyotga joriy etiladigan mexanizmlar ishlab chiqiladi va amaliy faoliyatda qo'llaniladi. Bu esa o'z navbatida bank xodimlarining kundalik ish jarayonlarida, xususan, har bir moliyaviy operatsiyani buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirishida o'z ifodasini topadi.

Hozirgi vaqtda bank muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha shakllantirilgan:

pul mablag'larining to'g'ri va o'z vaqtida hisobga olinishi;

aktiv va passiv operatsiyalarning huquqiy asosda aks ettirilishi;

buxgalteriya yozuvlarining milliy va xalqaro standartlarga muvofiq yuritilishi;

moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va audit uchun ochiqligi.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

a) amaldagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilish;

b) buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq ishlash;

c) bankning amaliy faoliyatidan kelib chiqib, odatiy operatsiyalarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobini yuritish;

d) Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan umumiy yo'riqnomalar va nizomlarga rioya qilish;

e) buxgalteriya hisobini ilmiy asoslangan tarzda tashkil etish.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, o'z mazmuni jihatidan korxona va firmalardagi buxgalteriya hisobiga o'xshash bo'lib, har ikkisi ham "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunga asosan yuritiladi. Ushbu qonundan kelib chiqib, banklardagi buxgalteriya hisobini yuritishning metodologik asoslari quyidagilardan iborat:

a) xo'jalik faoliyati haqidagi ma'lumotlarni dastlabki hujjatlarda aks ettirish;

b) xo'jalik operatsiyalari va bank mulkini pul ifodasida belgilash;

v) barcha operatsiyalarni ikkiyoqlama yozuv asosida guruhlash, bunda yozuvlar hisobvaraqlar rejasi bo'yicha olib boriladi;

g) hisob-kitob va boshqa operatsiyalar yakunida ma'lum sanaga bank faoliyatiga tavsif berish, ya'ni bank balansini tuzish.

Shu bilan birga, banklarda buxgalteriya hisobining o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishda quyidagi huquqiy hujjatlar metodologik asos qilib olinadi:

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrgi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi O'RQ-582-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-sonli Qonuni;

"O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqнома.

**Banklarda buxgalteriya hisobining vazifalari**

Bank muassasalarida hisob-kitob amaliyotlarini takomillashtirish, mijozlarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash operatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Hisob-kitob, kassa, valuta, kredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar aniqlik va ishonchlilik bilan amalga oshirilishi kerak. Har bir bajarilgan operatsiya o'z vaqtida va to'liq tarzda buxgalteriya hisobida aks ettirilib, statistik va moliyaviy hisobotlarda aniq ko'rsatilishi lozim.

Bankdan chiqadigan hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilishi zarur. Bu, o'z navbatida, boshqa banklar yoki tashkilotlar tomonidan ushbu hujjatlarning to'g'ri tushunilishi va ulardan foydalanilishi uchun muhimdir. Shuningdek, buxgalteriya hujjatlarining aniqlik bilan yuritilishi xatoliklar va noqonuniy harakatlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Pul mablag'lari, moddiy resurslar va qat'iy hisobdagi blankalarning to'g'ri hisobga olinishi hamda ularning samarali nazorati moliyaviy yo'qotishlar yoki ortiqcha xarajatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Agar operatsiyalar davomida bank xodimlari tomonidan qonunga zid harakatlar sodir etilgan bo'lsa yoki moliyaviy hujjatlar yo'qolsa, tegishli buxgalteriya hujjatlari bu holatlarni asoslab berishga xizmat qiladi va mas'ul shaxslarning javobgarligini aniqlash imkonini beradi.

Bank operatsiyalari qonuniylik va aniqlik tamoyillari asosida, keyinchalik ham tekshirilishi mumkin bo'lgan tarzda hujjatlashtiriladi. Ish tartibiga qat'iy rioya qilish, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish, mehnat va mablag' sarfini kamaytirish, hisobotlarni avtomatlashtirish — ularning barchasi zamonaviy bank buxgalteriyasi faoliyatining ajralmas tarkibiy qismlaridir.

Umuman olganda, banklarda buxgalteriya hisobini yuritish "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma asosida tashkil qilinadi va mamlakat hududidagi barcha tijorat banklari uchun majburiy hisoblanadi. Mazkur hujjatlar orqali operatsiyalarni rasmiylashtirish, hisobga olish va nazorat qilishning yagona, standartlashtirilgan mexanizmi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, bank muassasalarida moddiy javobgar shaxslar — kassir, ombor mudiri va boshqa mas'ul xodimlarni ishga tayinlash, lavozimidan ozod qilish yoki boshqa bo'limga o'tkazish jarayonlari bosh buxgalter bilan muvofiqlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Xodimlarga mansab maoshlari va ustamalarni tayinlash, mukofot berish bo'yicha farmoyishlar ham dastlab bosh buxgalter tomonidan ko'rib chiqilishi va imzolanishi zarur.

Bosh buxgalter quyidagi hollarda bevosita javobgarlikka tortilishi mumkin:

buxgalteriya hisobi noto'g'ri yuritilib, hisobotlarda haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlar aks ettirilgan hollarda;

depozitlar, hisobvaraqlar, debitorlik va kreditorlik hisoblarida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganida yoki hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganda;

buxgalteriya xodimlarining xatolari sababli moliyaviy hisobotlar noto'g'ri tuzilgan hollarda;

Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar talablariga zid xatolarga yo'l qo'yilganida;

bank rahbariyati bilan birgalikda moliyaviy va xo'jalik faoliyatini noto'g'ri tashkil etish natijasida muhim xatolarga yo'l qo'yilgan hollarda.

Bunday holatlarda bosh buxgalterning intizomiy, moddiy yoki jinoiy javobgarligi amaldagi qonunchilik asosida belgilanadi.

Hozirda tijorat banklarida amal qilayotgan hisobvaraqlar rejasi oltita bo'limdan iborat bo'lib, ularning beshtasi balans ichidagi, bir bo'limi esa balansdan tashqari hisobvaraqlarni qamrab oladi. Xususan, balansdan tashqari hisoblar ham ikkiyoqlama yozuv asosida yuritiladi, bu esa ularning ishonchliligi va tahliliy qulayligini ta'minlaydi.

Har bir bo'limda asosiy va yordamchi (subschyot) hisobvaraqlar mavjud bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

I bo'lim (10000–19999) – Aktivlar;

II bo'lim (20000–29999) – Majburiyatlar;

III bo'lim (30000–39999) – Kapital;

IV bo'lim (40000–49999) – Daromadlar;

V bo'lim (50000–59999) – Xarajatlar;

VI bo'lim (90000 va undan yuqori) – Balansdan tashqari holatlar.

Ushbu hisobvaraqlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq yuritiladi. Ayniqsa, ikkiyoqlama yozuv tamoyili asosida yuritilishi buxgalteriya hisobining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ikkiyoqlama yozuv usuli – bu buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy tamoyil bo'lib, har bir moliyaviy operatsiya tegishli hujjatlar asosida debet va kredit tomonlarda aks ettiriladi. Har bir hisobvaraqda operatsiyalar kundalik tarzda qayd etilib, kun boshidagi qoldiq (saldo) va kun yakunidagi yangilangan qoldiq hisoblab chiqiladi.

Mazkur tamoyilga ko'ra, barcha hisobvaraqlar o'z xususiyatiga ko'ra aktiv yoki passiv sifatida tasniflanadi. Bank mablag'larining mavjudligini aks ettiruvchi hisobvaraqlar aktiv, ularning shakllanish manbalarini ifodalovchi hisobvaraqlar esa passiv hisoblanadi.



1-jadval

Aktiv hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni aks ettiruvchi jadval

Debet	Summa	Kredit	Summa
1. Kun boshiga bo'lgan boshlang'ich qoldiq (saldo)		1. Mablag'larning hisobdan chiqarilishi	
2. Mablag'larning kelishi		a)	
a)		b)	
b)		v)	
v)		2. Mablag'larni hisobdan chiqarilishi bo'yicha aylanmalar summasi	
3. Mablag'larning kelishi bo'yicha aylanmalar summasi (a + b + v)			
Kun oxiriga bo'lgan qoldiq (1 + 3 - 5)			

Ushbu jadvalda ko'rib turganimizdek, hisobvaraq ikki qismdan iborat bo'lib, uning debet tomonida kun boshiga bo'lgan qoldiq (1) aks ettirilgan. Kun davomida turli operatsiyalar bo'yicha hisobvaraqqa kelib tushgan mablag'lar (2) yig'ilib, debet bo'yicha aylanmalarni (3) hosil qiladi.

Shuningdek, hisobvaraقدan tovarlar, xizmatlar va notovar operatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar, ya'ni mablag'larning hisobdan chiqarilishi (4) hamda shu barcha chiqimlar bo'yicha umumiy kredit aylanmalari (5) hisobvaraقدning kredit tomonida aks ettiriladi.

Kun oxiriga bo'lgan qoldiqni (6) aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

Boshlang'ich qoldiq (1) + debet bo'yicha aylanmalar (3) – kredit bo'yicha aylanmalar (5) = kun yakunidagi qoldiq (6)

Shunday qilib, aktiv hisobvaraq bo'yicha kun oxiriga bo'lgan qoldiqni aniqlash mumkin.

Endi esa, passiv hisobvaraq orqali o'tkaziladigan operatsiyalarni ifodalovchi jadvalni ko'rib chiqamiz.

2-jadval. Jadvallar Navro'zova K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika. – Toshkent: Iqtisodiyot, kitobdan olindi.

Passiv hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni aks ettiruvchi jadval

Debet	Summa	Kredit	Summa
4. Majburiyatlarning kamayishi (mablag'lar manbalarining kamayishi) ya'ni mablag'larning hisobdan chiqarilishi:		1. Kun boshiga bo'lgan dastlabki qoldiq	
a)		2. Mablag'larning kelishi (majburiyatlarning ko'payishi):	
b)		a)	
v)		b)	
g)		3. Mablag'larning kelishi bo'yicha aylanmalar summasi (a + b + v)	
5. Mablag'larni hisobdan chiqarilishi bo'yicha aylanmalar summasi (a + b + v + g)		6. Kun oxiriga bo'lgan qoldiq (1 + 3 - 5)	

Passiv hisobvaraqlar bo'yicha kun oxiriga bo'lgan qoldiqni (6) aniqlash uchun, kredit tomonida aks ettirilgan kun boshiga bo'lgan qoldiq (1)ga kun davomida kelib tushgan mablag'lar yig'indisini ifodalovchi aylanmalar summasi (3) qo'shiladi. So'ng, passiv hisobvaraقدning debet qismida aks etgan mablag'larning chiqib ketishini ifodalovchi aylanmalar summasi (5) ayiriladi.

Qoidaga ko'ra: hisobvaraقدning qaysi tomonida qoldiq mavjud bo'lsa, shu tomondagi mablag'lar yig'indisi qo'shib, qarama-qarshi tomondagi mablag'lar summasi ayiriladi. Bu usul aktiv va passiv hisobvaraqlarning iqtisodiy mohiyatini saqlagan holda kunlik moliyaviy holatni aniq aks ettirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar

Tijorat banklarida operatsion xarajatlar buxgalteriyasini samarali yuritish – bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi va ishonchligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Mazkur maqolada ko'rib chiqilgan nazariy manbalar hamda amaliy tajriba asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

operatsion xarajatlarni hisobga olishda yagona yondashuvga asoslangan metodikani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

buxgalteriya yozuvlarini yuritishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va dasturiy ta'minotdan keng foydalanish;

xarajatlar tuzilmasini chuqur tahlil qilish imkonini beruvchi ichki analitik hisobotlar tizimini kuchaytirish;

buxgalteriya xodimlarining malakasini oshirish va ularni doimiy ravishda o'qitish orqali hisob yuritish aniqligi va tezkorligini ta'minlash;

buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha ichki nazorat va audit tizimini yanada takomillashtirish.

Yuqoridagi tavsiyalar banklarda buxgalteriya hisobining shaffofligi, aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, banklar moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga mos holga keltirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarida operatsion xarajatlarning buxgalteriya hisobi bilan bog'liq masalalar tahlil qilindi. Bank faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan operatsion xarajatlarni to'g'ri va aniq



hisobga olish — moliyaviy natijalarni ishonchli aks ettirishda muhim rol o'ynaydi.

Maqolada tijorat banklarida buxgalteriya hisobi tizimi, hisobvaraqlar rejasi, hisob yuritish prinsiplari va amaliyotlari keng ko'lamda ko'rib chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklari amaliy tajribasi asosida xarajatlar strukturasi samarali boshqarish zarurligi ta'kidlandi.

Operatsion xarajatlar buxgalteriyasini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;

buxgalteriya hisobi sohasida malakali kadrlar tayyorlash va ularni doimiy kasbiy rivojlantirish;

banklarda ichki nazorat va audit tizimlarini mustahkamlash.

Yuqoridagi chora-tadbirlar banklarda buxgalteriya hisobi sifatini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda butun bank tizimining samarali ishlashiga zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Navro'zova K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 212 b.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston", 2010-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – 1996-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi Qonun. – 2022-yil, yangi tahrir.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Qarori, PQ–3270-son, 2017-yil 12-sentabr.: <https://lex.uz/docs/-3342348>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4611-sonli qarori, 2019-yil 24-fevral.: <https://lex.uz/docs/-4746047>
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank buxgalteriya hisobi bo'yicha yo'riqnoma. – Toshkent, 2020.
8. Karimov A.K. Bank ishi asoslari. – Toshkent: Moliya, 2020. – 296 b.
9. Soliyev M., Qurbonov B. Banklar buxgalteriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 180 b.
10. Isroilov I.A. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2019.
11. Qurbonov B.A., Mamadaliyev S. Banklar faoliyatini boshqarish. – Toshkent: TSUE nashriyoti, 2020.
12. Markaziy bank axborot byulleteni. – Toshkent: 2022–2024-yillar, turli sonlar.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Bank tizimidagi islohotlar tahlili. – 2023.
14. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. – 2016-yil 13-aprel, O'QR–404-son.: <https://lex.uz/docs/-2931253?otherlang=1>
15. Normativ-huquqiy hujjatlar ma'lumotnomasi. Lex.uz portali – <https://lex.uz> (murojaat qilingan sana: 2025-yil 4-iyun).
16. Naimova M.T. Tijorat banklarida moliyaviy boshqaruv. – Toshkent: TSUE, 2022.
17. World Bank Group. Uzbekistan Financial Sector Review: Recent Developments and Reform Priorities. – Washington DC, 2022. www.worldbank.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
